

Kichik tadbirkorlik


E'tibor bering!

- 2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 67,7 foizni tashkil etdi.
- 2940 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,5 birlikni tashkil qiladi.

2019 yilning yanvar-martida 2940 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 70,2 foizga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 41,4 foizni, sanoat tarmog'ida 24,3 foizni, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 10,9 foizni, qurilish tarmog'ida 8,1 foizni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 6,1 foizni, tashish va saqlashda 2,0 foizni tashkil qilmoqda.

2019 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (foizda) (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)




**Shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik
korxonalar va mikrofirmalar (birlikda)**
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	2018 y. yanvar-mart	2019 y. yanvar-mart	Farqi (+-)
Samarqand viloyati	1088	2940	1852
Samarqand shahar	339	972	633
Kattaqo'rg'on shahar	60	64	4
Oqdaryo tuman	42	102	60
Bulung'ur tuman	36	104	68
Jomboy tuman	45	123	78
Ishtixon tuman	45	216	171
Kattaqo'rg'on tuman	49	126	46
Qo'shrabot tuman	30	60	30
Narpay tuman	22	59	37
Payariq tuman	65	148	83
Pastdarg'om tuman	62	200	138
Paxtachi tuman	22	71	49
Samarqand tuman	111	302	191
Nurobod tuman	34	70	36
Urgut tuman	71	186	115
Tayloq tuman	55	137	82

2019 yilning yanvar-martida kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'pi Samarqand shahrida (972 ta), Samarqand (302 ta), Ishtixon (216 ta), Pastdarg'om (200 ta), Urgut (186 ta) va Payariq (148 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019 yil yanvar-mart holatiga yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi (foizda)**
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)




2019 yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushi Samarqand shahrida – 33,1 %, Samarqand – 10,3 %, Ishtixon – 7,3 %, Pastdarg'om – 6,8 %, Urgut – 6,3 % va Payariq – 5,0 % tumanlarida tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar (birlikda)**
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	2018 y. yanvar-mart	2019 y. yanvar-mart	Farqi (+/-)
Jami	1088	2940	1852
Qishliq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	146	180	34
Sanoat	247	715	468
Qurilish	148	237	89
Savdo	267	1218	951
Tashish va saqlash	29	60	31
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	105	322	217
Axborot va aloqa	20	42	22
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	41	28	-13
Boshqa turdagi xizmatlar	85	138	53

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar (birlikda)**
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda - 1218 ta, sanoatda – 715 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 322 ta, qurilish – 237 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 180 ta, tashish va saqlashda - 60 ta, axborot va aloqada - 42 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda - 28 ta hamda boshqa turdagi xizmatlarda - 138 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan shahar va tumanlar (birlikda)
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	2018 y. yanvar-mart	2019 y. yanvar-mart	Farqi (+/-)
Samarqand viloyati	1088	2940	1852
Samarqand shahar	339	972	633
Oqdaryo tuman	42	102	60
Bulung'ur tuman	36	104	68
Jomboy tuman	45	123	78
Ishtixon tuman	45	216	171
Kattaqo'rg'on tuman	49	126	77
Payariq tuman	65	148	83
Pastdarg'om tuman	62	200	138
Samarqand tuman	111	302	191
Urgut tuman	71	186	115
Tayloq tuman	55	137	82


2019 yil yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Samarqand shahrida – 633 ta, Samarqand - 191 ta, Ishtixon - 171 ta, Pastdarg'om – 138 ta, Urgut – 115 ta, Payariq – 83 ta, Tayloq – 82 ta, Jomboy – 78 ta, Kattaqo'rg'on – 77 ta, Bulung'ur – 68 ta va Oqdaryo – 60 ta tumanlarida tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar (birlikda)
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)




2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatgich Bulung'ur (17,8 birlikda), Jomboy (16,0 birlikda), Payariq (14,5 birlikda), Ishtixon (14,1 birlikda), Samarqand shahrida (13,8 birlikda), Oqdaryo (12,2 birlikda), Tayloq (11,6 birlikda), Pastdarg'om (11,1 birlikda), Samarqand (10,4 birlikda), Nurobod (9,5 birlikda) va Urgut (9,3 birlikda) tumanlarida o'rtacha ko'rsatgich 9,1-8,2 birlik oralig'ida Kattaqo'rg'on shahri, Qo'shrabot, Kattaqo'rg'on va Paxtachi tumanlarida aniqlandi. Narpay tumanida 6,3 birlikda ushbu ko'rsatgich past bo'lib qolmoqda.

2019 yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda).




Agar, 2018 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 10,7 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 11,5 birlikka yetdi va 2018 yilga nisbatan 0,8 birlikka ko'paydi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
2019 yil yanvar-mart holatiga.
(har 1000 aholiga, birlikda)



Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2017 yilning yanvar-martida 10,0 birlikni, 2018 yilda 10,7 birlikni tashkil etgan bo'lib, 2019 yilda bu ko'rsatkich 11,5 birlikka yetdi. Bu esa, 2017 yil ko'rsatkichidan 1,5 birlikda, 2018 yil ko'rsatkichidan 0,8 birlikda yuqori.


2019 yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlarida
kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi (foizda)



2019 yilning yanvar-martida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning ulushi sanoatda 43,1 foizni, qurilishda - 98,3 foizni, investitsiyada - 42,6 foizni, savdoda - 88,0 foizni, eksportda - 81,2 foizni, importda - 76,2 foizni va xizmatlar sohasida - 72,2 foizni tashkil qilmoqda.

2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi

YaHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 67,4 foizi kichik tadbirkorlik sub'yektlari (biznes) hissasiga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich 2018 yil yanvar-martiga nisbatan 3,7 bandga kamaygan.



2019 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi (foizda)

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar
Samarqand viloyati	51,1	98,3	72,8
Samarqand sh.	36,0	94,9	60,3
Kattaqo'rg'on sh.	24,4	100,0	93,1
Bulung'ur	100,0	100,0	98,1
Jomboy	11,6	100,0	87,2
Ishtixon	42,0	100,0	97,6
Kattaqo'rg'on	32,0	100,0	97,0
Narpay	16,9	100,0	97,2
Nurobod	100,0	100,0	95,3
Oqdaryo	79,1	100,0	97,4
Payariq	36,5	100,0	97,7
Pastdarg'om	46,9	100,0	75,7
Paxtachi	40,2	100,0	96,1
Samarqand	99,6	100,0	91,2
Tayloq	83,3	100,0	82,7
Urgut	96,2	100,0	94,7
Qo'shrabot	100,0	100,0	99,1

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushi Bulung'ur, Nurobod va Qo'shrabot tumanlarida 100,0 foizni ;

– qurilishda Urgut, Jomboy, Pastdarg'om va Nurobod tumanlarida 100,0 foizni tashkil etdi

– xizmatlar sohasida Qo'shrabot 99,1 foizni, Bulung'ur 98,1 foizni, Ishtixon 97,6 foizni, Oqdaryo 97,4 foizni va Kattaqo'rg'on 97,0 foizni tumanlarida qayd etildi.

2019 yilning yanvar–martida kichik tadbirkorlik sub`yektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1331,6 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 43,1 foizi);



386,0 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 42,6 foizi) o'zlashtirildi va 2018 yilning yanvar–martiga nisbatan o'sish sur'ati 50,2 foizni tashkil qildi;



577,8 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 98,3 foizi) bajarildi va 2018 yilning yanvar– martiga nisbatan o`shish sur`ati 108,5 foizni tashkil qildi;



1893,7 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyat jami xizmatlar hajmining 72,2 foizi) 2018 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 104,0 foizni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 88,0 foizi yoki 2328,7 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 103,2 foizni) shu sohaga to`g`ri keldi;


–67,1 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 81,2 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2018 yil yanvar-martiga nisbatan 22,3 mln. AQSh dollariga yoki 49,9 foizga ko`p;




- avtomobil transporti yuk aylanmasi 2,3 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 95,8 foizi) ko`payishi ta`minlandi;
- yo`lovchi aylanmasining esa 2,2 foizga (viloyat jami yo`lovchi aylanmasining 97,4 foizi) ko`payishi ta`minlandi;



Kichik tadbirkorlikning sohalar kesimida ulushi (umumiy hajmiga nisbatan foizda)




2019 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (473,3 mlrd. so'm), Samarqand tumani (194,4 mlrd. so'm), Urgut tumani (174,8 mlrd. so'm) va Bulung'ur tumanlari (114,1 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Narpay (13,0 mlrd. so'm), Nurobod (7,2 mlrd. so'm) va Qo'shrabot tumanlarida (5,3 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2019 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahri (540,2 mlrd. so'm), Urgut (323,9 mlrd. so'm), Pastdarg'om (168,6 mlrd. so'm), Bulung'ur (132,9 mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on (125,0 mlrd. so'm) tumanlari va Kattaqo'rg'on shahri (122,5 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi.



2019 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



2019 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Samarqand shahrida (999,8 mlrd. so'm), Samarqand (87,6 mlrd. so'm), Urgut (78,9 mlrd. so'm) va Bulung'ur (65,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019 yil I-chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 228 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.


Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, iqtisodiy vaziyati mos ravishda respondentlarning iqtisodiy vaziyatni qulay yoki qoniqarli deb baholashi qurilish sohasida – 23,8 foizni va 76,2 foizni, savdo sohasida – 39,1 foizni va 58,6 foizni, xizmatlar sohasida – 29,4 foizni va 62,7 foizni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 25,0 foizni va 75,0 foizni, sanoatda – 24,5 foizni va 73,6 foizni tashkil qilganini ko'rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar xizmatda – 7,8 foizni, savdoda – 2,3 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil I-chorak uchun, (foizda)



**Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini
yaqin uch oyda baholanishi, (foizda)**



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi
bo'limi

Mas'ul: J. Butayev

Tel: (0371) 230-85-27